

ADABIYOT DARSLARIDA O'QUVCHILARNI BADIY ASAR YUZASIDAN TANQIDIY
BAHOLASHGA O'RGATISH TEXNOLOGIYASI

Otajonova Parizoda Azizjonovna

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti 4-
kurs talabasi

Tel: +99894 001 4645

otajonovaparizoda79@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada adabiyot darslarida o'quvchilarni badiiy asar yuzasidan tanqidiy baholashga o'rgatish texnologiyasi tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim jarayonida tanqidiy tafakkurni shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Maqolada badiiy asarlarni tahlil qilish metodlari, o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish usullari hamda interfaol o'qitish texnologiyalari yoritib beriladi. Shuningdek, o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhokama, debat, klaster va badiiy tahlil kabi yondashuvlarning samaradorligi tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvlarning ahamiyatini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: tanqidiy fikrlash, badiiy asar tahlili, interfaol ta'lim, mustaqil fikrlash, pedagogik texnologiyalar.

Annotation: This article analyzes the technology of teaching students to critically evaluate literary works in literature lessons. Developing critical thinking is one of the key tasks in modern education. The article explores methods of analyzing literary texts, ways to enhance students' creative thinking, and interactive teaching technologies. Additionally, it examines the effectiveness of approaches such as discussions, debates, clustering, and SWOT analysis in fostering independent thinking skills. The research findings highlight the significance of pedagogical strategies aimed at developing critical thinking abilities.

Keywords: critical thinking, literary analysis, interactive learning, independent thinking, pedagogical technologies.

KIRISH

Yurtimiz ravnaqi, hayotimiz istiqboli, avvalambor, atrofidagi shaxslar bilan muomala qila oladigan, ularni tushuna oladigan, o'qni qoradan ajrata oladigan barkamol avlodga bog'liqdir. Ma'nan yetuk, inson xatti-harakatlarini va atrofida sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni tanqidiy baholash ko'nikmasiga ega bo'lgan yoshlarimizni kamol toptirishda adabiyot darslari muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Darslarda o'quvchilar asar qahramonlari qarashlarini tushunish, ularning xatti-harakatlariga tanqidiy yondashgan holda baho berishga o'rganadilar. Natijada, o'quvchilar jamiyat taraqqiyotini to'g'ri va haqqoniy baholash, voqealarga tanqidiy munosabatda bo'lish ko'nikmasini egallaydilar. Bu ularga har qanday vaziyatni to'g'ri baholay olishga yordam beradi.

O'qituvchi dars davomida o'quvchilarni fikrlashga o'rgatishi, qahramon xatti-harakati va ruhiy olamida deyarli sezilmasdan o'tib ketadigan nuqtalarga ular e'tiborini qaratishi, ana shu nuqtalar asosida shaxslik fazilatlarini haqida mushohada yuritib, odamlarni to'g'ri tushunish, obyektiv baholash ko'nikmalarini shakllantirishi maqsadga muvofiqdir.

Tanqidiy tafakkur va uning ahamiyati

Tanqidiy tafakkur, tor ma'noda, muayyan hodisalarga tuzatishlar kiritish asosida baho berishni anglatadi. Ya'ni tanqidiy tafakkur nimaga ishonish va nima qilish haqidagi yechimga yo'naltirilgan aqliy faoliyatdir.

Tadqiqotchi **D.Xalpernning** ta'biricha: "**Tanqidiy tafakkur – insonning ochiq fikrlash tarzi**" hisoblanadi. Tanqidiy tafakkur egasi hech qachon qotib qolmaydi. U o'z g'oyalari va qarashlarini hayotiy tajribalari asosida boyitib beradi. Aynan shu jihati bilan tanqidiy tafakkur ijodiy tafakkurdan farq qiladi. Tanqidiy tafakkur ijodiy tafakkurning rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Psixologlar J.Piaje va D.Xalpern o'quvchilar 14-16 yoshga yetganlarida tanqidiy tafakkurning rivojlanish bosqichi boshlanishini aytadilar. Biroq, mazkur ko'nikma barcha o'quvchilarda bir xil darajada rivojlanmaydi. Ular o'z tanqidiy qarashlarini ishga solishlari uchun bir qator sifatlariga ega bo'lishlari kerak. Jumladan, o'z xatti-harakatlarini rejalashtirishga tayyorgarlik kerak bo'ladi. O'quvchilarda hosil bo'lgan tushuncha-fikrlarda ko'pincha bo'shliq, bir yoqlamalik kuzatiladi. Shuning uchun ham ular o'z fikrlarini mantiqiy izchillikda bayon qilish ko'nikmasini egallashlari lozim.

Agar o'quvchilar boshqa sinfdoshlari va tengdoshlarining qarashlarini hech qanday e'tirozsiz qabul qilsalar, o'zlarining yangi fikrlari va g'oyalarini vujudga keltira olmaydilar. O'zgalarning qarashlariga moyillik o'quvchilarning turli-tuman ax-borotlarni o'zlariga xos va moz tarzda o'zlashtirishlariga halaqit beradi. O'quvchilar tez-tez murakkab vazifalarga duch kelib, uning yechimini kechiktirishga odatlanib bo-radilar. Shu tariqa fikrsiz, o'zgalarning buyruqlari va talablarini ko'r-ko'rona bajaraveradigan tanballar shakllanadi. O'smirlar qat'iyatlikka ega bo'lganlaridagina aql-idrokni faollashtiradilar.

O'quvchilarni tanqidiy fikrlashga yo'naltirishda quyidagilarga asoslanish maqsad-ga muvofiq bo'ladi: o'quvchidan o'z fikrini asoslashni talab qilish, zarur dalillarni tek-shirishga undash ; o'z dalillarining to'g'riligini tekshirish uchun ekspertlarga murojaat qilishga yo'naltirish; dalillarni bevosita tekshirishga odatlanish; muqobil izohlarni izlab topish; sezgilarga asoslangan holda boshqa dalillarni aniqlash; isbotlanmagan dalillarning chalg'ituvchilik xarakterga ega ekanligini anglab yetish; namunaga asoslangan holda o'z oldiga muammolar qo'yish; amaliy ma'lumotlarning qanchalik unumli ekanligini tushunib yetish; ma'lumotlarni tanlab tayanishga odatlanish; o'z xulosalarining xatoligi va aniq emasligiga iqror bo'lish; har bil dalilda tabiiylik mavjudligini tushunish va hk.

Tanqidiy tafakkurnig shakllanishida muhim tamoyillardan biri bahs-munozaralar jarayonida o'quvchi opponentining nuqtai nazariga obyektiv yondasha olish tajribasini o'zlashtirishidir. Unga hurmat bilan munosabatda bo'lish, o'z nuqtai nazarini aniq dalillar yordamida himoya qilishga odatlanish shaxs shakllanishi negizidir. O'quvchilar aniq, ravshan, ochiq, tushunarli, maqbul fikrlash tajribasini o'zlashtirishlari bugun- gi adabiy ta'limning maqsadiga muvofiq keladi.

Adabiy ta'lim jarayonida badiiy asarlar qahramonlari shaxsiga tanqidiy baho berish ko'nikmasi asarni o'qish, qahramonlarning xatti-harakatlari hamda ularning xa-rakter xususiyatlarini o'rganish jarayonida asta-sekinlik bilan shakllanib boradi. Bu ja-rayon, ayni paytda, o'rganilishi talab qilinayotgan badiiy asarni har tomonlama tahlil qilishni taqozo etadi. Badiiy asarda tasvirlangan voqea-hodisalarni, qahramonlarning xarakter xususiyatlarini, tuyg'ularini chuqur mulohaza qilgan holda tahlil qilish asnosida rivojlanadi. Bu jarayonda o'quvchilar e'tibori badiiy asar qahramonlari, ularning tutumlariga tanqidiy baho berishga asos bo'ladigan dalillarga qaratiladi. Shundan keyin o'quvchilar aniqlangan dalillar va chiqarilgan hukmlari o'zaro qiyos-

laydilar. Shu tariqa asar qahramonlari shaxsiyatini tanqidiy baholashga asos bo'ladigan fikrlar yig'indisi vujudga keladi.

O'qituvchi o'z o'quvchilariga navbatdagi darsda qaysi asar ustida ishlash va qaysi qahramonlar shahsiyatini baholash zarurligini oldindan rejalashtirishi darkor. O'qituvchi o'quvchilarni badiiy asar qahramonlariga tanqidiy baho berishga o'rgatish maqsadida ular e'tiboriga muayyan asarni havola qilishdan oldin mazkur darsni loyiha-lashtirishi, o'quvchilarga beriladigan savol va topshiriqlarni aniq belgilab olishi kerak bo'ladi. Bu savol va topshiriqlar o'rganilayotgan asar qahramonlari harakteri va shax-siyatiga xos xususiyatlarni, ularning xatti-harakatlari, tuyg'ulari, baxti va baxtsizliklari sabablarini aniqlashga xizmat qilishi lozim. Chunonchi, asar qahramonlari orasidagi farqlar, ular xarakteridagi bir-birini inkor etuvchi jihatlar, o'xshash tomonlar xuddi mana shu savollar yordamida ochib berishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'qituvchi o'quvchilarning asar qahramonlari haqidagi barcha fikrlarini diqqat bilan tinglashi, ularni qiyoslashi va yakuniy hukm chiqarishga shoshilmasligi lozim. Shu bilan bir qatorda, tasodifiy, noto'g'ri fikrlar va holatlarga alohida e'tibor qaratishi lozim hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, o'quvchilarning tanqidiy fikrlash faoliyatlaridagi izchillikni ta'minlash uchun ular bilan muayyan asar ustida doimiy davra suhbatlari, savol-javoblar tashkil etib zarur ma'lumotlarni to'plashi va umum-lashtirishi talab etiladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida nafaqat o'quvchilar, balki o'qituvchi ham tanqidiy fikrlashi lozimligini ta'lim jarayonining o'zi taqazo etadi. Chunki tanqidiy baholash ko'nikmasiga ega bo'lgan o'qituvchilargina ijtimoiy ta'lim-tarbiya vaziyatlarini to'g'ri tahlil qila oladi. Tadqiqotchi **L.V.Jarova** birinchilardan bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonining muhim vazifalaridan biri sifatida o'quvchilarda o'z shaxsiyatlarini ang-lash hamda o'z fikrlariga tanqidiy munosabatda bo'lish ko'nikmalarini egallash ke-rakligini ta'kidlagan.

O'quvchilarda tanqidiy baholash ko'nikmasini shakllantirish uchun rejali tarzda syujetli matnlar, hikoyalar, ertaklar yozish xaqida topshiriqlar berish o'rinli bo'ladi. Ayniqsa, badiiy matn yaratish haqidagi topshiriqlar muhim ahamiyatga ega. Bunday topshiriqlar o'quvchilar uchun qiziqarli bo'lishi bilan bir qatorda, ularda tanqidiy baholash ko'nikmalarini shakllantirish nuqtayi nazaridan juda foydali hamdir. Shu bilan bir qatorda, bunday topshiriqlar aksariyat o'quvchilarda badiiy asarlarni chuqur o'zlashtirish, ularni tahlil qilishga qiziqish uyg'otadi. Bu, albatta, tanqidiy fikrlashning bir ko'rinishi bo'lib, o'quvchilarning o'quv- biluv faolligini rivojlantiradi.

XULOSA

Adabiyot darslarida o'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish – ularning mustaqil fikrlash, asar mohiyatini chuqur anglash va baholash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Badiiy asarlarni tahlil qilish jarayonida interfaol metodlardan, jumladan, muhokama, debat, SWOT tahlil kabi texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning faolligini oshirib, ularni o'z fikrlarini asosli bayon qilishga o'rgatadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy pedagogik yondashuvlar yordamida o'quvchilarda nafaqat adabiy-estetik did, balki tanqidiy tafakkur va analitik mulohaza yuritish qobiliyati ham shakllanadi. Shunday ekan, adabiyot darslarini faqatgina asar matnini o'qish va qayta hikoya qilish bilan cheklamasdan, o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy tafakkurini rivojlantirishga yo'naltirilgan holda tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 08.10.2019 yildagi PF-5847- sonli Farmoni

2. Терлецкая Л. Критическое мышление как средство развития умений учащихся анализировать и применять информацию / Терлецкая Л. - Материалы международной научно-практической конференции «Развитие навыков критического мышления». 2012.

3. Хачумян Т. И. Понятие "критическое мышление" и его сущность в психолого-педагогической науке / Хачумян Т. И. // Теоретические вопросы культуры, образования и воспитания: сб. науч. пр. Вып. 24, часть 2. - Киев: Издательский центр КНЛУ, 2003.

4. Теплов Б. М. Избранные труды в 2-х т. / Б. М. Теплов. - Педагогика, 1985, Т. 2. - 328 с.

5. Дайана Халпери. Психология критического мышления. - Санкт-Петербург, Луч, 2000.- 147с

6. Джени Стил, Керт Мередис, Чарльз Темпл. Проект: Чтение и письмо для развития критического мышления. Пособие 1-7. Бишкек, 2000.-235 с.

7. G'oziyev E. G'. Tafakkur psixologiyasi -Toshkent: O'qituvchi, 1994,-292 b

8. Кочерга А. В. Взаимосвязь мышления, чувств и воображения в развитии критичности человека / В. Кочерга. Автореф. дис. канд. психол. наук : 19.00.01 Ин-т психологии им. Костюка АПН Украины. - М., 2003.

9. Mansurjonovich, J. M. (2022). METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR IMPROVING THE CONTENT OF TRAINING FUTURE ICT TEACHERS IN THE CONDITIONS OF DIGITAL TRANSFORMATION OF EDUCATION. АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ, 9.

10. Juraev, M. M. (2021). Pedagogical conditions for the development of vocational education through interdisciplinary integration into the vocational education system. In НАУКА, ОБРАЗОВАНИЕ, ОБЩЕСТВО: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ (pp. 110-112).